

“O‘ZAVTOSANOAT” AK NING 2015 YIL UCHUN BIZNES REJASI

TOSHKENT 2015 yil iyun

Biznes reja tarkibi (mundarijasi)

Rezyume

Qisqacha ma'lumot

Kompaniya faoliyatining tuzilishi (strukturasi)

Maqsadlar, vazifalar va istiqbolli rejalar

Mahsulot va xizmatlar

Kirish

Mahsulot va xizmatlarning tavsifi

Hamroh tovar va xizmatlar

Mahsulotlar marketingi

Ichki bozorning marketing tadqiqotini o‘tkazish

Tashqi (eksport) bozorning marketing tadqiqotini o‘tkazish

Ishlab chiqarish va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

Ishlab chiqarish rejasi

Tarmoqning investitsion dasturi (modernizatsiya)

Maxalliyashtirish dasturi

Yangi ish o‘rinlari yaratish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish

Rezyume

Qisqacha ma'lumot

“O‘zavtosanoat” Aksiyadorlik Kompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 avgustdagi “Avtomobil sanoatining boshqaruvi tarkibini (strukturasi) takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №405-sonli Qaroriga muvofiq tashkil topgan.

“O‘zavtosanoat” AK (keyingi o‘rinlarda Kompaniya)ning ustav fondi (jamg‘armasi) 2015 yilning 10 iyun holatiga ko‘ra 558,8 mlrd. so‘mni tashkil qiladi. Ta'sischisi 100 %lik ulush bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mulk

Qo‘mitasi hisoblanadi. Tarmoq ishchilarining umumiy soni 26,5 ming kishini tashkil qiladi. Kompaniya apparatining ishchilari soni 52 kishini tashkil qiladi.

Kompaniya faoliyatining strukturasi

Ishlab chiqarish

“GM O‘zbekiston” AJ - yengil avtomobillar;

“SamAvto” MCHJ - yuk avtomobillar va avtobuslar;

“ManAvto-O‘zbekiston” QK - og‘ir yuk tashuvchi tyagachlar, samosvallar va maxsus mashinalar;

Avtokomponentlar ishlab chiqaruvchi korxonalar;

Boshqa ishlab chiqarish korxonalari.

Savdo-sotiq

Ichki sotuv tarmoqlari va avtomobillarga xizmat ko‘rsatish shaxobchalari - 74 ta dilerlar;

Tashqi sotuv tarmoqlari va avtomobillarga xizmat ko‘rsatish shaxobchalari - 150 ta dilerlar;

Moliyaviy mablag‘lar

“O‘zavtosanoat-lizing” MCHJ Lizing kompaniyasi va “Asaka” Bank.

Kapital qurilish

Injiniring Kompaniyasi.

Kadrlar tayyorlash

Injenerlar

Turin politexnika universiteti

“GM O‘zbekiston” AJ uchun texnik xodimlar

Andijon viloyatidagi Asaka avtomobilsozlik kolleji.

“SamAvto” MCHJ uchun texnik xodimlar

Samarqand shahridagi kollej.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti qoshidagi Akademik litsey.

Mahsulot va xizmatlar

Kirish

Kompaniya tarkibiga avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha uchta korxonalar kiradi: "GM O'zbekiston" AJ - yengil avtomobillar, "SamAvto" MCHJ - ISUZU rusumidagi yuk avtomobillar va avtobuslar, "ManAvto-O'zbekiston" QK - MAN rusumidagi og'ir yuk tashuvchi tyagachlar, samosvallar va maxsus mashinalar, avtokomponentlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, va aholiga mahsulotlarni sotish va pullik xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqa ishlab chiqarish korxonalari.

2015 yilda tarmoq bo'yicha prognoz:

- ishlab chiqarish xajmi - 7 959,1 mlrd. so'm;
- aholi iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmi - 5 252,8 mlrd. so'm;
- pullik xizmat ko'rsatish - 47,7 mlrd. so'm.

Avtomobilsozlik sohasiga qarashli bo'lmagan korxonalar faoliyati.

"Ist Batterflyay" MCHJ - oshxona idishlari va savdo-texnologik jihozlar ishlab chiqarish;

"Sendvich panel" MCHJ - sendvich-panellar ishlab chiqarish.

Kompaniyaning xizmat ko'rsatuvchi Korxonalar:

"O'zavtosanoat-lizing" MCHJ - lizing xizmatlarini ko'rsatish;

"Avtosanoat-terminal" UK - yuklarni ortish-tushirish va saqlash kabi xizmatlarni ko'rsatish;

"O'zavtotexxizmat" AJ va "O'zavtosanoat-servis" MCHJ korxonalar tizimi - avtomobillarni sotish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kabi xizmatlarni ko'rsatish;

"O'zavtosanoattrans" MCHJ - transport xizmatlarini ko'rsatish;

"Avto-olam" MCHJ - tarmoqning "Avto-olam" jurnalini chiqarish.

Mahsulotlar marketingi

Ichki bozorda marketing o'tkazish tadbirlari

Hozirgi kunda dilerlik tarmog'i 74 ta korxonadan tashkil topgan. 2015 yilda Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 3 dilerlik markazlarining ochilishi rejalashtirilgan.

2015 yilda sotuvni stimullashtirishga yo'naltirilgan marketing va reklama tadbirlari davom etadi.

- OAVda reklama tadbirlarini o'tkazish (banner dasturi, jurnallar va pressa);
- joriy va yangi modellarning fotosessiyasini tashkil qilish;
- Kompaniya va "GM O'zbekistan" AJ avtomobillari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni topish mumkin bo'lgan korporativ saytlar va (www.uzavtosanoat.uz) korporativ saytini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borish;

Savdo-dilerlik kelishuvlari talablariga muvofiq tarzda dilerlik markazlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar rejalashtirilgan.

Yangi aloqalar o'rnatish, investitsiyalar va yangi texnologiyalar jalb qilish maqsadida, II-chi Toshkent Avtomobil Konferensiyasini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

"GM O'zbekistan" AJ ning Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti filiali bazasida 2011 yilda tashkil qilingan o'quv markazida, xaridorlarga xizmat ko'rsatish va sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sifatini oshirish dasturlari bo'yicha dilerlik korxonalarini xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish davom etadi. Shuningdek "Sotuv madaniyati", "Avto xizmat ko'rsatishni tashkil qilish va butlovchi qismlarni sotish", "Sotuvdan keyingi servis xizmatlarini ko'rsatish shartlari" yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

"ManAvto-O'zbekistan" QK tomonidan ichki bozorda dilerlik tarmog'ini kengaytirish, Farg'ona, Navoi, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo va Qashqadaryo kabi egallanmagan viloyatlarda (kamida bitta markaz) dilerlik markazlarini ochish,

bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda, hamda barcha tarmoqni yagona korporativ standartlarga olib kelish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Eksport bozorlaridagi marketing tadqiqotlar (tadbirlar)

Sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida "GM O'zbekistan" AJ tomonidan Afrika davlatlarida (Angola, Gana, Efiopiya, Senegal, Nigeriya, Liberiya, Madagaskar va boshqa) va yaqin Sharq (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Baxreyn, Qatar, Oman, Iroq va boshqa) davlatlarida marketing tadqiqotlar o'tkazildi. "Kobalt" avtomobilini Liviya va yaqin Sharq davlatlari bozorlari talablariga (konditsioner tizimi, ushbu davlatlardagi yoqilg'ining turli markalariga dvigatelni moslashtirish, havoni yuqori darajada tozalash filtri, ekstremal darajadagi yuqori haroratda plastik va rezina qotirgichlarning mustahkamligi) moslashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

An'anaviy bozorlarda mavjud dilerlik tarmoqlarini yagona korporativ standartlarga keltirish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Distribyutorlik korxonalarini oldiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan.

Servis xizmatlarini ko'rsatish (servis xizmatlarining 7 bosqichi)ning yagona standartlariga amal qilish ustidan doimiy nazorat amalga oshirilmoqda.

Davriy aksiyalar (tadbirlar) o'tkazish va xizmat ko'rsatish va butlovchi qismlar bo'yicha boshqa takliflar ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.

Avtomobillarga sotuvdan keyingi servis xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun butlovchi qismlarni yetkazib berish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2015 yilda eksport bozorlaridagi Uz-Daewoo markasining rebrendingini o'tkazish rejalashtirilmoqda. Rebrending loyihasi doirasida yangi brendning rasmiy taqdimotini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Uz-Daewoo markasining rebrendingiga eksport dilerlarini tayyorlash uchun 2015 yilda Rossiyada amaldagi barcha xorijiy dilerlik korxonalarining vakillari ishtirokida dilerlik konferensiyasini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

“ManAvto-O‘zbekistan” QK tomonidan sotish bozorlarini kengaytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda, hozirgi vaqtda Eron bozorlarining marketing tadqiqotlari o‘tkazilmoqda.

Modellar qatorini kengaytirish uchun Yevro-4 standartidagi 400 ot kuchiga ega tyagach ishlab chiqarish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Joriy yilda Koreyaning “Daewoo International Corporation” kompaniyasiga tyagachlarni eksport qilish rejalashtirilmoqda. Undan tashqari, samosvallar yetkazib berish masalasi ham ko‘rib chiqilmoqda.

“SamAvto” MCHJ

Eksportga yo‘naltirilgan mahsulot (LE-60 avtobusi) ishlab chiqarilishi o‘zlashtirildi. Hozirgi vaqtda sertifikatlash bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Suyultirilgan gaz NPR82Lda ishlaydigan yuk avtomobillarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

“Non tashuvchi” va “Refrijerator (muzlatgich)” modifikatsiyasidagi avtomobillar Turkmanistonda sinovdan o‘tkazilmoqda.

Maxalliy lashtirish bo‘yicha korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarning ham, butlovchi qismlarning ham, bozorlari rivojlanishi va sotuv hajmining oshishi tendensiyasini o‘rganish maqsadida, “O‘zavtosanoat” AKning ishtirok etishi maqsadga muvofiqligi o‘rganib chiqilmoqda, hamda 2015-2016 yillarda o‘tkaziladigan halqaro ko‘rgazma yarmarkalariga o‘zlarining eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarini chiqaradigan korxonalar ham ishtirok etishi o‘rganib chiqilmoqda:

- Rossiya Avtomobil forumi (RF, Moskva sh.);
- MIAS - ixtisoslashtirilgan avtomobil ko‘rgazmasi (RF, Moskva sh.);
- “MIMS AutomechanikaMoscow-2015” - butlovchi qismlar va jihozlarning ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmasi (Moskva sh.);
- Avtosanoat. Avtokomponentlar (Tolyatti sh.) va boshqa xalqaro ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmalar.

Asosiy ko'rsatkichlar

Ishlab chiqarish rejasi

2015 yilda tarmoq korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 7 959,1 mlrd. so'mni tashkil qiladi.

Tarmoqning investitsion dasturi (modernizatsiya)

O'zbekiston Respublikasining Investitsion dasturi loyahasiga muvofiq 2015 yilda "O'zavtosanoat" AK bo'yicha 17 investitsion loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib bular, modernizatsiyalash bo'yicha, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qurollantirish (jihozlash), yangi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha bo'lib umumiy qiymati 313,57 mln. dollarga teng, shundan 2015 yil davomida 118,03 mln.doll. miqdoridagi investitsiyani o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. 2015 yil uchun investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbasidan o'z mablag'larimiz 25,14 mln.doll., to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya - 7,21 mln. doll., tijorat banklarining kreditlari va qarz mablag'lari - 85,69 mln.doll. hisoblanadi.

2015 yilda hammasi bo'lib 48,08 mln.doll. qiymatidagi 8 loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. (1. Yuk avtotransport vositalarining kabinalarini yig'ish va qismlarini maxalliylashtirish jarayonini o'zlashtirish. 2. Yuk avtomobillarining (validatsion sinovlar talab etilmaydigan) detallarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish. 3. Labo avtomobilini ishlab chiqarishni tashkil qilish. 4. Statorlar ishlab chiqarishni tashkil qilish. 5. Emallangan mis simlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish. 6. Gazballon jihozi o'rnatilgan "Lasetti" avtomobillari ishlab chiqarishni o'zlashtirish. 7. "O'zChasis" QK jihozlarini modernizatsiyalash. 8. "T250" avtomobili uchun yoqilg'i baklari ishlab chiqarishni tashkil qilish.)

Mahalliylashtirish dasturi

Mahalliylashtirish darajasini oshirish, butlovchi qismlar va materiallar importini qisqartirish, hamda 2015 yilda maxalliylashtirish Davlat dasturiga kiritilgan 17 loyiha bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish

maqsadida, 2015 yilda 183,6 mlrd. soʻmdan kam boʻlmagan miqdordagi mablagʻga mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Yangi ish oʻrinlarini yaratish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish.

Ish oʻrinlari yaratish dasturiga muvofiq tarmoqda 303 ta ish oʻrinlari yaratish koʻzda tutilgan, shu jumladan:

investitsion dasturi boʻyicha - 96 ta ish oʻrinlari;

maxalliyashtirish dasturi boʻyicha - 44 ta ish oʻrinlari;

rivojlantirish dasturi boʻyicha - 128 ta ish oʻrinlari;

uy mexnati boʻyicha - 35 ta ish oʻrinlari.

Kompaniyaning strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri, mutaxassislar tayyorlashning butun bir tizimini yaratgani hisoblanadi, birinchi navbatda tarmoq korxonalar uchun injener-texnik mutaxassisligi boʻyicha, hamda biznes-boshqaruviga moliyaviy-iqtisodiy mutaxassisligi boʻyicha.

Tarmoq uchun kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim boʻgʻini Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hisoblanadi, kelajakda (istiqbolda) Oʻzbekistonning avtomobilsozlik tarmogʻida oʻzining shaxsiy injener-konstruktorlik potensialini (imkoniyatini) yaratish va rivojlantirishning eng asosiy elementi boʻlishi kerak.

Korxonalar xodimlarining chuqur bilimga ega boʻlishini taʼminlashning asosiy yoʻnalishi tayyorlash, qayta tayyorlash va tarmoq uchun zaxira kadrlar tayyorlash tizimini yaratish hisoblanadi, bular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Xodimlarni tayyorlash - umumiy va maxsus bilimlari darajasini oshirish, mutaxassisligi boʻyicha amaliy ishlardagi tajriba yetishmovchiligini toʻldirish;
2. Oʻquv markazlarida maxsus dasturlar boʻyicha oʻqitish yoʻli bilan professional bilimlari darajasini va malakasini oshirish;
3. Ishchi kadrlarni va mutaxassislarni oqilona joylashtirish;
4. Tarmoq uchun mutaxassis kadrlar zaxirasini tayyorlash.

Tarmoq korxonalarining rahbarlari va injener-texnik xodimlarini, ishchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish rejalarida 7950 xodimni o'qitish ko'zda tutilgan.